



SUTEMIZUVCHI (MAMMALIA) SINFI VAKILLARINI TAXIDERMİYASINI YASASH USULLARI

Abduvali Yo'ldashev

Andijon davlat pedagogika instituti Biologiya yo'nalishi o'qituvchisi, O'zbekiston, Andijon

Moxigul Toshboyeva

Andijon davlat pedagogika instituti Biologiya yo'nalishi talabasi, O'zbekiston, Andijon

Asila Saloyeva

Andijon davlat pedagogika instituti Biologiya yo'nalishi talabasi, O'zbekiston, Andijon

Annotatsiya: Ushbu maqolada muzey, maktab, kollej, oliygothlar va boshqa o'quv muassasalardagi eksponatlaridan biri bo'lgan sutemizuvchi hayvonlarning taxidermiyasini yasash va uning bir qancha usullari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Taxidermiya, taxidermist, gips, kigiz karton, dekstrin yelim.

Annotation: This article provides information on making taxidermy of mammals, which is one of the museum, school, college, university exhibits, and several methods.

Key words: Taxidermy, taxidermist, plaster, felt cardboard, dextrin glue.

Аннотация: В данной статье представлена информация о изготовлении таксидермии млекопитающих, которая является одним из музейных, школьных, колледж экспонатов, а также о нескольких методах.

Ключевые слова: Таксидермия, таксидермист, гипс, фетровый картон, декстриновый клей.

Muzeylar uchun hayvon eksponatlarini tayyorlashning ko'p qirrali va qiyin san'atlaridan biri taxidermiya hisoblanadi. Taxidermiya turli hil usullarni o'z ichiga oladi. Bu san'at turi muzey kolleksiyasini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli hayvonlarni qanday yig'ish va saqlashni o'rganish muhim hisoblanadi. Taxidermiya-yunoncha so'zdan olingan bo'lib "taeu"- tayyorlash, qayta ishlash va "derra"- teri ya'ni teridan terilar tayyorlash degan ma'noni anglatadi. Biz bilamizki, havaskor ovchilar har yili turli hayvonlarni ovlaydi. Ushbu hayvonlardan o'lkashunoslik muzeyining tabiiy bo'limi ko'rgazmalariga qo'shish mumkin. Lekin ovchilar ovlangan hayvonlarni muzeyiga topshirishi shart emas. Shu sababli, qimmatbaho materiallarning juda ko'p qismi ovchilar qo'lida qolib ketadi. Bundan tashqari, qimmatbaho materiallarni juda ko'p qismi zoologlar qo'lida, muzey vitrinatlarida va muzey hodimlari tomonidan hayvonlarni qanday ajratish va saqlashni bilishmaganligi sababli yaroqsiz holga kelib qoladi. Shu boisdan taksidermistlar doirasini yaratish doimo muhim masala bo'lib kelgan. Shu sababli o'rta maktab va universitetda o'quv jarayonida eksponatlarni to'ldirishga o'z hissamizni qo'shishimiz zarur.

Taxidermist hayvonlarni eksponatlarini tayyorlashdan oldin hayvonning tabiiy sharoiti yoki asirlikda vaqtidagi tashqi ko'rinishini, turmush tarzi va odatlari, anatomik xususiyatlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish lozim. Taxidermistga yordam beruvchi omillardan biri tabiatdan olingan fotosuratlar, kinofilmlar, zoologiyaga oid adabiyotlar va



shu bilan birga hayotning turli jabhalarida hayvon tomonidan olingan harakterli jarayonlarni kuzatishdir.

Taxidermiya maqsadida hayvonlar bir qancha usullar bilan tutiladi. Masalan, xordalilar tipining qushlar va sutemizuvchilar sinfi vakillari otiladi. Kichik kemiruvchilar va hasharotlar tutqich silindrlar yoki uzun chelaklar yordamida ommaviy yig'iladi. Baliqlar qarmoqlar bilan ovlanadi, kaltakesak, ilon, baqa, toshbaqalar qo'lda tutiladi.

Taxidermist hayvonlar eksponatlarini uzoq muddat davomida saqlash uchun hasharotlar bilan ifloslanishga qarshi choralar ko'rish kerak. Shu maqsadda arsenli birikmalar mishyak kislotasi, uning natriyli tuzi, hom texnik mishyaklar emulsiya yoki eritma holatida qo'llaniladi. Ba'zi bir hayvonlarga masalan sichqonsimon kemiruvchilar va kalamushlarga shprints bilan mishyak eritmasini yuboriladi.

Taxidermist hayvonlar terisini to'ldirishda yumshoq materiallardan foydalanadi. Bu usul ko'p asrlik bo'lib, uni Osiyo, Lotin Amerikasi va Afrika va Hindistonning ko'plab bozorlarida kobra, timsohlar va manguslar sotuvchilarning ishlarida kuzatishimiz mumkin.


Sutemizuvchilarning taxidermiyasini ko'plab hayvonlar misolida o'rganishimiz mumkin. Jumladan, xordalilar tipi sutemizuvchilar (mammalia) sinfi yirtqichlar turkumi bo'risimonlar oilasining vakili bo'rini taxidermiyasini tayyorlashda tirgak, turli diametrli temir, qattiq iplar, oq tibbiy gips, doka, yog'och yelim, taxta, metall to'r, turli o'lchamdagi mix, chang'i pidar (bo'yoq erituvchi), sun'iy ko'z, yumshoq loy, kigiz karton, dekstrin yelim (pasta tayyorlash uchun), ish yuritish pinlari turli o'lchamdagi yong'oqlar va zich ko'pikli plassmasa, mantar kabi materiallar va asboblari bo'lishi zarur.

Eksponatlar uchun sun'iy ko'zlar uy hayvonlari do'konlarida mavjud. Lekin yomon tanlangan ko'z ko'rgazmani buzadi. Shu sababli havaskor taxidermist o'z ishi uchun sarf bo'lgan turli o'lchamdagi va shakldagi va rangdagi sun'iy ko'zlarni osongina tayyorlashimiz mumkin. Buning uchun eng mos materiallardan biri organik shisha, poliestir qatroni va metil metakrilat kerak bo'ladi. Bu materiallar ko'zning shaffof pardasini yaxshi taqlid qiladi. Ularni qayta ishlash juda oson. Ko'z qorachig'ini olishda eng oson usullardan biri ko'z qorachig'ini qoplaydigan ko'z bo'shlig'iga bir necha tomchi azot qatlamli kumush (lapis) qo'llaniladi. Yorqin sun'iy yoki kunduzgi yorug'likda azot kumush parchalanadi va ko'z qorachig'i kuchli qora rangga aylanadi. Qolgan kerosin yoki mumni olib tashlash uchun ko'z issiq suvga botiriladi.

Taxidermistning birinchi ishi taxidermiya uchun hayvon tanlab olinadi. Hayvonni jonsizlantirish uchun esa tanasiga kimyoviy modda yuboriladi va hayvonni murdasi kesiladi. Ramka tayyorlanadi, u temir va yumshoq bo'lishi kerak, qalinligi esa to'ldirilgan hayvonning kattaligi va og'irligiga qarab tanlanadi. Oyoq va qo'llar uchun qalinroq, tana bo'yin va quyruq uchun biroz ingichkaroq yoki oyoq qo'l bilan bir xil qilib tanlanadi. Tana simi bosh va quyruq bilan tananing uzunligi va bosh suyagini o'rnatish va mahkamlash va qo'l oyoqlarining armaturasi biriktirilgan ikkita halqani burish uchun 7-10 sm li simdan foydalaniladi. Ba'zan bo'yin va quyruqni modellashtirish uchun turli xil qalinlikdagi simlarni alohida qismlari ishlatiladi. Qo'l oyoqlarning simini mustahkamroq mahkamlash uchun korpus simi yelim bilan ozgina mahkamlangan bo'ladi.



Yirtqich hayvonlarni modellashda hayvon yovuzligini ta'kidlash yoki tumshug'i yirtqich ifodasini berish uchun og'zi ochiq holatda bo'ladi, til, milk, lab va sun'iy tishlar o'rnatiladi. Ko'z qovoqlari va qosh tizmalari egri chiziqlari yorqinroq rangda maxsus bo'yalgan ko'zlarga tajovuzkor ifoda beradi. Ushbu maqsadlar uchun og'zi ochilgan hayvon tumshug'i modeli qo'llaniladi. Tabiiy bosh suyagi zich tasma bilan mustahkamlanadi. Buning uchun sim orqali bosh suyagi mahkamlanadi. Jag'larni yopilishiga yo'l qo'ymaslik uchun ular orasiga qo'shma sohada yog'och blok qo'yiladi. Bu esa jag'larni kerakli masofada to'g'ri mustahkamlash imkonini beradi.



Rasm.131. Tabiiy bosh suyagini ochiq og'iz bilan modellashtirish.

A - jag' suyaklaridagi teshiklar; B - mahkamlash
 ochiq og'iz uchun jag'lar; V - bosh suyagi ustidan o'ralgan jgut;
 G - mushaklarni gips bilan shakllantirish.

Bosh suyagi tana qismiga qanchalik mustahkam o'rnatilgan bo'lsa hayvonning bosh bo'yin va butun tanasi bir-biridan shunchalik aniq ajralgan bo'ladi. Oyoq qo'llarning simlari oyoq skeletining uzunligiga mos kelishi kerak. Buning uchun simni hayvon terisiga yoki jasadiga qo'yish orqali aniqlash mumkin. Qo'l oyoqlarning simlari oyoq suyaklarining egilishiga qarab egiladi.

Terini manekenga qo'yish butun ishning oxirgi va yakuniy bosqichidir. Shu bilan birga juda muhim va ma'sulyatli qismidir, chunki barcha ishlarning natijasi terining manekenga qanchalik to'g'ri va jonli o'tirishiga bog'liq. Ushbu tayyorgarlik ishlarini boshlashdan oldin tirik tabiatga turli ko'rgazmali qurollarga fotosuratlariga e'tibor qaratish lozim. Dastlab bosh sohasidan boshlab teri yo'naltiriladi. Birinchi navbatda ular burun teshiklari va ko'z kosasiga moslab joylanadi. Og'izni modellashtirishda yuqori labni joylashdan boshlanadi. Pastki labning shilliq terisi og'izga qarab turadi. Lab terisi og'iz bo'shlig'iga mahkamlashni tugatgandan so'ng yuroqi va pastki lablar tekislanadi. Ko'zni o'rnatgandan so'ng ko'z qovog'i va uning ustiga tushiriladi. Ko'z qovog'i va shisha ko'z orasidagi bo'sh joyga yog'och yelim bilan suyultirilgan nozik mastik qatlami kiritiladi. Ushbu mastik sun'if shilliq qavatni ifodalashi kerak. Sun'iy quloq quloq terisiga mahkamlanadi. Tana yuzasini tikish vaqtida terini faqat ichki tomondan teshiladi. Tikish jag' burchagidan boshlanadi. Agar qo'l va oyoqlardagi teri burmalari bir biriga to'g'ri kelmasa ular mahkam bog'lanadi. Oyoq qo'llarni qoplanishi tizza bo'g'imi hududida tugaydi.

Teri burmalarini ham oyoq skeletining burmalari bilan mos kelishi uchun juda muhim. Ichi to'ldirilgandan so'ng qorni tikiladi. Barmoq oyoqlarini to'g'ri joylashtirish muhim. Qo'l va oyoqni mustahkamlash uchun to'ldirilgan hayvonni quritilganda barmoqlar qog'oz yoki



ignalar bilan mahkamlanadi. Qotirilgandan so'ng ignalar chiqarib tashlanadi. To'ldirilgan hayvonni sochlariga jonli porlash va to'g'ri joylashni berish uchun uni changyutgichdan birinchi navbatda havo oqimi sochlariga ya'ni dumidan boshgacha keyin sochlar bo'ylab puflash kerak. Havo oqimi mo'ynani kraxmal zarralaridan ozod qiladi va sochni to'g'ri shakllantiradi. Tayyor to'ldirilgan hayvon yog'och stendga mahkamlanadi. Katta hayvonlar 7-10 kunda quriydi. To'ldirilgan hayvonlar bir xil sharotida quriydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sadulla Dadayev, Ochil Mavlonov "Zoologiya" Tosh." Iqtisod-moliya" 2008.
2. S.Dadayev, Q. Safarov "Zoologiya" Tosh." Iqtisod-moliya" 2009.
3. М. А ЗАСЛАВСКИЙ ИЗГОТОВЛЕНИЕ (МУЛЯЖЕЙ и МОДЕЛЕЙ ЖИВОТНЫХ)
Общая таксидермия Ленинград "Наука" 1968.
4. M.Abdullaev, M.Rasulov, S.Fayozova "Umurtqalilar xayvonlar zoologiyasidan dala praktikasi" Pedagogika oliy o'quv yurtlari tibbiyot-geografiya fakulteti talabalari uchun o'quv qo'llanma T. "O'qituvchi" 1987.
5. "Umurtqali hayvonlarning morfologiyasi" Zoologiya instituti materiallari. 33-jild. 1964. 354 b.